

MAMLAKATIMIZDA ISHLAB CHIQARISHNI TARKIBIY O'ZGARTIRISH BORASIDA DAVLATNING SANOAT YO'NALISHIDAGI SIYOSATI

Rayimberdiyeva D, Inoyatova M, Hayitaliyev J

inoyatovamaftuna1550@gmail.com

Namangan To'qimachilik Sanoati Institutiu

KIRISH

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot organlarining amaldagi tuzilmasi, ularning ishini tashkil qilish prinsip va usullari iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy talablariga, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlaridagi tuzilmaviy o'zgartirishlarga javob bermaydi.

Xususan, iqtisodiyotning o'zgarishi sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo'nalishlarini (indikatorlarini) shakllantirish, shuningdek mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning strategik ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi mavjud emas.

Iqtisodiyotning hududiy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan urbanizatsiya salohiyatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi kerakli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Bozor tamoyillarini keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirish va ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish hajmlarini oshirish bo'yicha zarur tadbirlar ishlab chiqilmayapti. Natijada, barqaror ishchi o'rnlari yaratish darjasini pastligicha saqlanib qolayotganligi aholini, ayniqsa qishloq aholisini barqaror daromad manbai bilan ta'minlash imkonini bermaydi va sifatli inson kapitalini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Annotasiya: *Maqolada mamlakatimizda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish borasida davlatning sanoat yo'nalishidagi siyosati davlat samarali sanoat siyosatini yuritishi uchun davlatning o'zini qayta qurish kerak uni samarali shaffof va ixcham qilish lozim. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatga xos bo'lмаган funksiyalarini bajarishni bas qilishi, boshqaruvning ma'muriy usullaridan foydalanishdan voz kechishi kerak. Biroq, buning uchun tub ma'muriy islohot o'tkazilishi lozim ekanligi o'r ganilgan.*

Kalit so'zlar: *Mexanizm, monopoliya, investitsiya, indikator, investisiya, eksport.*

Ma'muriy islohotlar o'zida quyidagilarni jamlagan bo'lishi lozim:

1. Davlat boshqaruving markaziy apparati islohoti.

- 2. Markazning hududlar bilan, hududlarning tumanlar bilan o‘zaro munosabatini islohqilish.
- 3. Sohalarni boshqarish darajasidagi ma’muriy islohot.
- 4. Davlat sektori va tabiiy monopoliyalar islohoti.
- 5. Davlat xizmatlari islohoti.
- 6. Davlat xizmatlarining biznes va aholi uchun taqdim etilishini takomillashtirish
- 7. Siyosiy-huquqiy islohotlar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni sarhisob qilinganda, bir qator ijobjiy ishlarni ko‘rshimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 27-mart kuni o‘tkazilgan investisiya, eksport va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha yig‘ilishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratdilar:

Eksport qiluvchi korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 tagacha ko‘paydi. Eksport qilinayotgan mahsulot turlari ham 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtagacha oshib, geografiyasi 139 ta mamlakatdan 164 taga yetdi. Tayyor mahsulot eksporti 2 baravarga, ularning tovarlar eksportidagi ulushi 50 foizdan 65 foizga oshdi.

Bu sur’atni izchil davom ettirib, joriy yilda qariyb 11 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Hududlarda 23 milliard dollarlik 12 mingta yangi loyiha, shu jumladan, 3 mingdan ziyod sanoat loyihalari ishga tushirilishi belgilangan.

Yil boshidan 764 million dollar xorijiy investisiya o‘zlashtirilgani, 1 ming 300 ta yirik va o‘rta loyihalar ishga tushirilgani qayd etildi. Eksport 3 milliard dollarni tashkil qilgan.

Davlatimiz rahbari bu natijalar yetarli emasligini, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda ikki karra ko‘proq harakat qilish kerakligini ta’kidladilar. Prezidentimiz ishga tushadigan loyihalar ijrosini hududlar va tarmoqlar kesimida kunlik nazorat qilib, muammolarni hal qilib borish zarurligini ta’kidlab o‘tdi, ya’ni 304 ta yirik va 3 mingta hududiy loyihalarni ishga tushirilishi natijasida shu yilning o‘zida 10 trillion so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish va 200 million dollarlik eksport qilish imkoniyatlari mayjud.

Tashqi bozorlarni doimiy tahlil qilib, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, yangi transport yo‘laklarini topish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Raqobat kuchayib borayotgan ayni paytda mahsulotlar sifatini oshirish va tannarxini tushirish muhimligi qayd etildi. Yuqori texnologik va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni mahalliylashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy qilish, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida Sanoat siyosati tadqiqotlari markazini tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimizning iqtisodiy siyosat sohasidagi bosh vazifasi — ijobjiy biznes-iqlim yaratishdir. Buning uchun davlatning o‘zini qayta qurish kerak. O‘zbekistonning keyingi o‘n yilliklardagi iqtisodiy rivojlanish istiqbollari mana shu ishni amalga oshira olishimiz yoki olmasligimizga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YHATI:

1. <http://ekonomic.doco.ru>.

2. Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. 2005 йил.

3. Манба: Сайдова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманидаги тақдимот материаллари. – Т., ТДИУ, 2009 йил 5 май.